



XALQ DEPUTATLARI UYCHI TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 30-mart

VII-20-38-6-86-K/26

Uychi tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi «Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–277-sonli qarorining tumandagi ijrosi to‘g‘risida O‘zbekiston XDP tuman tashkiloti partiya guruhi rahbari R.Nazarovanning axboroti to‘g‘risida

O‘zbekiston XDP tuman tashkiloti partiya guruhi rahbari R.Nazarovanning ta’kidlashicha, partiya guruhi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi «Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–277-sonli qarorining ijrosi bo‘yicha tumanda amalga oshirilgan ishlar o‘rganib chiqilgan.

Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida tumanda Bolalar markazi negizida kelajak markazi tashkil etilgan. Markaz faoliyati yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish hamda kelajakda raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishiga xizmat qilmoqda.

“Kelajak” markazida yoshlarning bilim va salohiyatini oshirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda zamonaviy kasb va ko‘nikmalarga yo‘naltirishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirildi. Markazda axborot texnologiyalari, dasturlash asoslari, robototexnika, xorijiy tillar, mantiqiy fikrlash va ijodiy yo‘nalishlar bo‘yicha to‘garak va mashg‘ulotlar tashkil etilgan.

Mashg‘ulotlar tasdiqlangan reja asosida, malakali o‘qituvchilar va mutaxassislar tomonidan zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida olib borilmoqda. “Kelajak” markazida yoshlarning bilim va salohiyatini oshirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida reja asosida ishlar olib borilmoqda.

13-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi 1969-yil tashkil topgan bo'lib, tumandagi yosh avlodni musiqa va san'at yo'nalishlarida tarbiyalash, ularning iste'dodlarini rivojlantirish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda muhim o'rin egallab kelmoqda. Maktabda hozirgi kunda 33 nafar o'qituvchi faoliyat yuritib kelmoqda. Ularning 13 nafari oliy ma'lumotli, 6 nafari oliy toifali, 5 nafar o'qituvchi oliy ta'limda tahsil olmoqda. Qolgan o'qituvchilar o'rta maxsus ma'lumotli bo'lsada tajribali bilimga ega ustozlardan hisoblanadi.

Maktabda hozirgi kunda 228 nafar o'quvchi 12 ta yo'nalishda taxsil oladi.

- 144 nafar – musiqa yo'nalishida, 47-nafar qizlar, 97 nafar o'g'il bolalar
- 84 nafar – san'at yo'nalishida 69 nafar qizlar, 15 nafar o'g'il bolalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgustdagi PQ-4797-son "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib tamoyillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar" to'g'risidagi qarori hamda Xalq ta'limi vazrligining 2014- yil 22,29-sonli qarori ijrosi yuzasidan 13-sonli BMSMda 2025-2026 o'quv yilida 26 nafar o'quvchi imtiyozli, 32 nafar o'quvchi belgilangan to'lovning 70% miqdorida badal to'lovlari to'lanishi belgilangan.

Kun tartibidagi masala yuzasidan doimiy komissiya, ishchi guruh a'zolari va ekspertlarning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning 6, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Uychi tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi «Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–277-sonli qarorining tumandagi ijrosi to'g'risida O'zbekiston XDP tuman tashkiloti partiya guruhi rahbari R.Nazarovanning axboroti qoniqarli deb topilsin.

2. Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i S.Mamatvaliyevga:

- o'quvchilarda zamonaviy va talab yuqori kasblarga qiziqish uyg'otish, interaktiv ta'lim muhitini shakllantirish orqali bolalarning ilmiy, texnikaviy, ijodiy va sport yo'nalishidagi salohiyatini ro'yobga chiqarish;

- bolalarning yetakchilik qobiliyatlari, shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan loyihalarni yo'lga qo'yish, o'quvchilar tarixga oid bilimlarini mustahkamlash, ularda Vatanga sadoqat, madaniy meros va milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;

- maktabdan tashqari ta'lim tizimini zamon talablari asosida rivojlantirib borish, sohaga malakali mutaxassislarni jalb etib borish;

- maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari moddiy-texnika bazasini xalqaro andoza va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga mos ravishda rivojlantirish vazifalari yuklatilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi A.Muydinov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**HAKIMOVA
GAVXAR
ABDUQAXOROVNA**